XALQ DEPUTATLARI QO'SHRABOT TUMAN KENGASHI QARORI

140900, Qo'shrabot sh., G'afur G'ulom ko'chasi, 3-uy, tel: (0-366) 646-15-18, e-mail: qoshrabot.t@exat.uz

2023 - yil 4 - may VI-64-63-7-97-K/23 Qo'shrabot tuman hokimligi

Qo'shrabot tumani "Qovunchi" mahalla fuqarolar yig'ini tarkibidagi Shamoli qishlog'ini Qo'shrabot tumani "Shovana" mahalla fuqarolar yig'ini tarkibiga o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi VM-48-sonli qaroriga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, LXIV sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shamolli qishlog'i faollarining 2023-yil 6-mart kundagi, "Qovunchi" MFY vakillarining 2023-yil 7-mart kundagi yig'ilish bayonnomalari hamda "Qovunchi" MFYning 2023-yil 23-martdagi 8-sonli iltimosnomasi ma'lumotnoma uchun qabul qilinsin.

2. Qo'shrabot tuman kadastr palatasiga 10 kun muddatda:

-"Shovana" mahalla fuqarolar yig'ini chegara hududi xaritasini o'zgartirish;

-"Qovunchi" mahalla fuqarolar yig'ini chegara hududi xaritasini o'zgartirish vazifasi yuklatilsin.

3. "Shovana" mahalla fuqarolar yig'ini raisi (D.Rasulov)ga 10 kun muddatda:

-Shamoli qishlog'i aholisini xatlovdan o'tkazish;

-mahalla fuqarolar yig'ini pasport ma'lumotlariga o'zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. "Qovunchi" mahalla fuqarolar yig'ini raisi (A.Jabbarov)ga 10 kun muddatda:

-“Qovunchi” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisini xatlovdan o‘tkazish;

-mahalla fuqarolar yig‘ini pasport ma’lumotlariga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Sayfiddinov), ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (A.Ismoilov) zimmalariga yuklatilsin**.**

Kengash raisi **D.Shakarboyev**